

QO'QON XONLIGI TA'LIM TIZIMI TARIXI

Baxtiyorov Shaxrux G'ulom o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti

4-bosqich talabasi

Anotatsiya: Qo'qon xonligining XIX asr boshidan to 1876 yilgacha, ya'ni xonlikning tugatilishiga qadar bo'lgan davr belgilandi. Mazkur davrda Qo'qon xonligida davlatchilik tarixi va xonlikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida, shu jumladan, maktab va madrasalar faoliyatida yuksalish, turg'unlik va inqiroz jarayonlari kechiradi. Qo'qon xonligi madaniy ma'naviy hayotining muhim tarmoqlaridan biri – maktab va madrasalar faoliyati hamda ularning davlat va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini o'rganish maqolaning maqsadi sifatida belgilab olingan.

Kalit so'zlari: Madrasa, Maktab, Ustoz, vaqf, Umarxon, Qur'on, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroziy, So'fi Olloyor.

Kirish.

XIX asr boshlarida Qo'qon xonligida boshlangan ilmiy, madaniy adabiy muhitning shakllanishi va rivojlanishida bevosita xonlikdagi maktab va madrasalarning o'rni beqiyosdir. Bu ilm o'choqlari xalqni ma'rifatli qilish, an'anaviy ta'limni va madaniy-ma'naviy hayotni yuksaltirishda katta rol o'ynagan. Islom dinining paydo bo'lishi va uning boshqa mamlakatlar kabi Turonzaminga kirib kelishi mahalliy xalq ijtimoiy-madaniy hayoti, kundalik maishiy turmushi, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasiga bir qator o'zgarishlar olib keldi. Umuman olganda, musulmon mamlakatlarida arab tilini va din asoslarini o'rgatishga ixtisoslashgan maktablarning paydo bo'lishi muqaddas kitob – Qur'oni Karimni o'rganish, tushunish zaruratining yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Keyinchalik esa Qur'on mazmuni va g'oyalarini xalqqa tarqatish maqsadida maktablar tashkil etilgan, ana shu paytdan e'tiboran “maktab” atamasi “mirzalar maktabi” ma'nosini bildirgan.

Islom olamida maktablar faoliyatini tadqiq etgan izlanuvchilar turli-tuman fikr-mulohazalarni bildirib o'tganlar. “Maktab” so'zi lug'aviy ma'nosi arab tilidan “yozish joyi” ma'nosini bildirib,¹ o'rta asrlar davomida fors-tojik, qardosh turkiy tillarda, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Volgabo'yi, Qrim va unga tutash mintaqalarda boshlang'ich ta'lim muassasasi sifatida muomalaga kirgan. J.Makdisi o'rta asrlar ta'lim tizimini o'rganar ekan, masjidlardagi maktablar va ularning ta'lim sohasidagi mavqeini yuqori baholagan edi. Bu davrda, jumladan, XI asrda Bag'dod shahridagi jome' masjididagi ta'lim

¹ Maktab // Ислам. Энциклопедия. А-Х / З.Хусниддинов таҳрири остида. – Тошкент: Ўз МЭ, 2004. – Б.149 – 150.

muassasasi – maktabda fiqh, hadis, tafsir, nahv, adab fanlari o‘rgatilgan, va’zlar qilinib, turli munozaralar olib borilgan. Albatta, sakkiz asr o‘tgach, ya’ni biz o‘rganayotgan davrga kelib nafaqat Qo‘qon xonligida, balki barcha musulmon o‘lkalarida tarbiya va maktab ta’limi tizimida juda katta o‘zgarishlar yuz berdi Unga ko‘ra, mahalliy aholi, bola 4 yoshdan o‘tib, gapirishni boshlaganda, uning kamolot tarbiyasi bilan shug‘ullanishga kirishgan. Bu paytda, asosan, diniy tushunchalar, salomlashish odobi o‘rgatilgan. Qizlar esa erta turmushga chiqishi bois 8 – 9 yoshga yetmay uy-ro‘zg‘or ishlarini o‘rganishni boshlaganlar. Rossiyalik tadqiqotchi R.Raximovning fikricha, imperiyaning musulmon o‘lkalarida, xususan, O‘rta Osiyoda mahalliy maktablarning ikki ko‘rinishi faoliyat ko‘rsatgan. Bularning biri – statsionar, ya’ni masjidlar qoshidagi, ikkinchisi – ko‘chib yuruvchi, ya’ni ko‘chmanchi aholi orasida tarqalgan boshlang‘ich maktablar. Tadqiqotchining qayd qilishicha, masjidlar qoshidagi maktablar tog‘li tojiklarda olovxonalarda faoliyat yuritgan. Masjidlardagi maktablarda esa darslar maxsus ajratilgan hujrada olib borilgan. Ma’lumotlarga qaraganda, XIX asr o‘rtalari – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida 7 mingdan ortiq bunday maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Ya’ni mazkur turdagi ta’lim muassasalarining 2/3 qismini tashkil etgan. Turkiston general-gubernatorligi arxiv fondlari va kuzatuvchi tadqiqotchilarning fikricha, XIX asrda mahalliy maktablar ikki xil bo‘lgan. Birinchisi quyi maktablar bo‘lib, yuqorida aytilganidek, masjidlarda faoliyat yuritgan. Ikkinchisi yuqori maktablar bo‘lib, faqat shaharlarda, katta qishloqlarda ish olib borgan.

Lekin aksariyat tadqiqotchilar maktablarni faoliyat xarakteriga ko‘ra jamoat, xususiylar, shahar va qishloq maktablariga bo‘lganlar. Xususiylar maktablar, odatda, o‘ziga to‘q oilalar tomonidan o‘z farzandlari ta’limi uchun tashkil etilgan va ularda 4 – 5 nafar bola o‘qigan. Masjidlarda maktab, odatda, masjidni qurdirgan shaxs tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, 10 – 30 ta bola joylashadigan xonadan iborat edi. Bu maktabda o‘qish 2 – 5 yil davom etgan. O‘qish erta tongda boshlangan, soat 10 – 11 da uyga nonushta qilishga qaytganlar. Tushda esa yana maktabga qaytib, kechgacha yurishgan. Masalan, Toshkent, Qo‘qon va Buxoroning bir qator madrasalarida tahsil olgan muarrix Muhammad Solihxo‘janing o‘zi shahar ziyolilari toifasidan bo‘lib, uzoq yillar o‘zi imomlik qilgan masjid qoshidagi maktab – dabiristonda bolalarga ta’lim berish bilan mashg‘ul bo‘lgan.² Mazkur asardagi ma’lumotlarga qaraganda, u o‘zi maktabdorlik qilgan masjidda imomlik qilish bilan birga shu yerda istiqomat qilgan. Uning maktabi faqatgina dars beriladigan ta’lim o‘chog‘i emas, balki maktabdor (ya’ni Muhammad Solihxo‘ja)ning madrasada birga saboq olgan do‘stlari yig‘ilib ilm-ma’rifat borasida bahslar uyushtiradigan va o‘sha zamon ijtimoiy-siyosiy voqealarini muhokama qiladigan maskan ham edi. Qo‘qon xonligida, odatda o‘g‘il va qiz bolalar maktabi alohida bo‘lib, qiz bolalar maktabida otinoyi dars bergan. Masalan, mashhur shoira Dilshod Qo‘qonda maktab ochgan. U o‘zining pedagogik

² Султонов Ў. Муҳаммад Солиххўжа ва унинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2009. – Б.21.

faoliyati haqida shunday yozgan edi: “Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste’dodli shoirlar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga 20 tadan 30 tagacha o‘quvchilarim bo‘lib, sakkiz yuz to‘qson ta qizning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi she’riyatga qobiliyatli bo‘lib, shoira va o‘z davrining aqlli va dono odamlari edi”.³ Qishloq maktablarida salohiyatli o‘qituvchi topish muammo edi. Maktabda o‘quvchilar ko‘p bo‘lsa, muallim yoshi katta o‘quvchilardan o‘ziga yordamchi tanlab olgan. Qo‘qon xonligidagi maktablar ham qo‘shni xonliklardagi an’anaviy maktablar bilan deyarli bir xil maqom va darajada bo‘lgan.

Ota-onalar muallimga bolalari maktabga o‘qishga kirayotganlarida, o‘qishda ayrim muvaffaqiyatlarga erishganida, jumladan, bir kitobni yakunlab boshqasini boshlaganda, “Qur’on” o‘qishga kirishganida hamda Qurbon va Ramazon hayitlari, Navro‘z bayrami munosabatlari bilan baholi qudrat hadya qilib turgan. Xayr-ehsonlar hisobidan ta’sis etilgan maktablar vaqf daromadlari bilan ta’minlab turilgan. Maktabga borish yoshi ham qat’iy belgilab qo‘yilmagan. Maktabga borish oilaning imkoniyat darajasi va bola qobiliyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Aksariyat bolalar 4 – 5 yoshdan mutolaa qilishni boshlab, maktabga 6 – 8 yoshdan qatnagan. Maktabda o‘qitishning davomiyligi domlaga, bolaning zehniga va oiladagi muhitga bog‘liq bo‘lgan. Maktablarda o‘quvchilarning soni, asosan, 30 nafardan oshmagan. Ayrim hollarda esa 8 nafar bola o‘qigan. Maktabda darslar jadvali, qat’iy dastur va muayyan o‘quv kursi bo‘lmagan. O‘qitish sinf – dars tizimida olib borilmagan, balki bir domladan saboq oluvchilarning hammasi bir xonadonda o‘qigan. Shunga muvofiq, darsxonaning to‘rida Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroziy, So‘fi Olloyor asarlari, “Chor kitob” kabilarni o‘quvchilar, o‘rtasida Qur’on, “Haftiyak”ni o‘quvchilar va poygakda “abjadxonlar” (bo‘g‘inlab o‘quvchi va “Abjadga” ko‘ra hisob hamda ko‘paytirishni o‘rganuvchilar) va “taxtaxonlar” (arab alifbosi harflari yozilgan maxsus taxtachalar – “lavh”dagi harflarni yodlab o‘rganayotgan o‘quvchilar) o‘tirganlar. Maktablarning mashg‘ulotlari juma, hayit va navro‘z bayrami kunlaridan tashqari har kuni bo‘lgan. Ayrim maktablarda ikki marta tanaffus qilingan. Birinchisi “nonxo‘rak” deb atalgan, u ertalabki soat 10-11 atrofida bo‘lib, bu paytda bolalar uydan olib kelgan nonlar, shirinliklar bilan tamaddi qilganlar. Tushki soat 13 –15 atrofida esa “oshxo‘rak” bo‘lib, o‘quvchilarga issiq ovqat berilgan. Yozda ota-onalar bilan kelishilgan holda ikki oyga ta’tilga chiqilgan. O‘quvchi yozishga o‘qishni to‘liq o‘zlashtirib olgandan keyingina o‘rgatilgan. Bolalar “So‘fi Olloyor” ba’zan, esa “Xoja Hofiz” nomli kitoblarni o‘qiy oladigan bo‘lgandan keyingina “xatga tushgan”. O‘quv qurollari qalam, qalamdon, lavh va xaltadan iborat bo‘lgan.

³ Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б.116.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov e’tirof etganidek, “O‘z tarixini bilmagan jamiyat istiqbolga eltuvchi yo‘lni topa olmaydi. Tarixga bepisand xalqning kelajagi yo‘q”⁴ Hozirgi maktab muammolarini tahlil qilishda Qo‘qon xonligi tajribasiga murojat qilamiz. Bugungi ta’lim tizimi jadal islohotlar, zamonaviy texnologiyalar va metodikalarga tayangan holda rivojlanmoqda. Maktablar zamonaviy kompyuterlar interaktiv doskalar internet tarmoqlariga ulangan. O‘quvchilar uchun zamonaviy metodik qo‘llanmalar yaratilmoqda. Ammo asosiy muammo – bu ta’limdagi ruhiy bo‘shliq. O‘qituvchilik kasbi nufuzi pasaygan. O‘quvchilar o‘qishga qiziqmaydi. Maktablarda tashqi ko‘rinishida e’tibori yaxshi lekin ichki muhitda fidoyilik kam. Shu bilan birga ta’limdagi asosiy muammolar – o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy nufuzi pasayishi, o‘quvchilarning bilimga nisbatan befarqligi, korrupsiya va shaklbozlik, ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi kabi masalalar hanuz dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bugungi kun maktablarida zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda o‘quvchilarni ongini rivojlantirish uchun turli xil metodlar maktablarda qo‘llanib kelyapti. Maktablarda o‘quvchilarga zamonaviy ta’lim standardidagi turli xil gajetlar bilan uzini boyitgan. Qo‘qon xonligi maktablarida 20-30 o‘quvchi tahsil olgan busa hozirgi zomonda bu sonlar 1 barobarga oshgan va shuni aytish mumkinki xonlikdagi xususiy maktablarda boylarning farzandlari o‘qidigan busa yangi zamon xususiy maktablarida ham boylarni farzandlari salmog‘i oshiqroq xonlikda xususiy maktablarda 5 nafar o‘quvchi bo‘ladigan busa ularga bilimli Ustozlar pul evaziga chaqirtirib o‘qitgan. Bugungi kunda xususiy maktablarga qarasangiz ularni 80% qismi 10 ga yaqin o‘quvchi va katta maosh evaziga chet eldan O‘qtuvchilar chaqirtirilyapti. Bugungi ta’lim tizimi esa o‘z ixtiyorida texnologik imkoniyatlar, zamonaviy darsliklar, erkinlik va yangi pedagogik yondashuvlar kabi ko‘plab resurslarga ega. Maktablar soni ko‘paygan, dars o‘tish uchun sharoit yaxshilangan, o‘quvchilarning dunyoqarashi kengaygan. Lekin, shunga qaramay, bu imkoniyatlar ichki ruh, fidoyilik, millatga xizmat qilish g‘oyasi bilan uyg‘unlashmasa, ta’lim samarasi zaiflashadi. Afsuski, bugungi kundagi asosiy muammolardan biri – motivatsiyaning sustligi, o‘qituvchining jamiyatdagi ijtimoiy obro‘sining yetarli darajada e’tirof etilmasligi, o‘quvchilar orasida o‘qishga befarqlik kuchayganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мактаб // Ислом. Энциклопедия. А-Х / З.Хусниддинов таҳрири остида. – Тошкент: Ўз МЭ, 2004. – Б.149 – 150.
2. Султонов Ў. Муҳаммад Солиххўжа ва унинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2009. – Б.21.
3. Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б.116.
4. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. 14-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б.21

⁴ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. 14-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б.21